



SHARQ MUSIQASI KAFEDRASI – MILLIY MUSIQA MEROSINING POYDEVORI

Pardayeva Jumagul Absamat qizi

Yunus Rajabiy nomidagi

O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti

San’atshunoslik (musiqashunoslik)

ta’lim yo‘nalishi II bosqich talabasi

E-mail: jumagul2006.05.12@gmail.com

Tel: +998-94-874-12-05

*Ilmiy rahbar: **Barno Shamshiyeva***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq musiqasi kafedrasining tashkil etilishi, olib borilgan sa’i harakatlar, ta’lim jarayonining rivoji, amalga oshirilgan muhim vazifalar, erishilgan yutuqlar borasida fikr yuritiladi. Cholg‘u ijrochiligining XX asrning ikkinchi yarmida amalga oshirilgan ishlar, erishilgan yutuqlar borasida fikr yuritiladi. Atoqli maqomdon ustoz Faxriddin Sodiqov rahbarligidagi Talabalar maqom ansambli ansamblining ijodiy faoliyati, ustozning ko‘rsatgan jonbozliklari borasida ma’lumotlar keltirilgan. Shuningdek, o‘zbek mumtoz musiqasining asosi bo‘lmish Shashmaqom cholg‘u ijrochiligi masalalariga e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Sharq musiqasi, Shashmaqom, mushkilot, mumtoz kuy, ustozshogird, milliy musiqa, cholg‘u kuy, cholg‘u ijrochiligi, ansambl, yakkanavoz, jo‘rnavoz.

Аннотация: В данной статье рассматривается организация кафедры Восточной музыки, предпринятые усилия, развитие образовательного процесса, важные выполненные задачи и достигнутые результаты. Обсуждается работа и достижения в области инструментального исполнительства во второй половине XX века. Представлена информация о



творческой деятельности Студенческого ансамбля макома под руководством выдающегося мастера макомаеф Фахриддина Содикова, а также о приложенных им усилиях. Также рассматриваются вопросы исполнения на инструменте Шашмаком, являющемся основой узбекской классической музыки.

Ключевые слова: восточная музыка, Шашмаком, сложность, классическая мелодия, отношения устоз-шогирд, национальная музыка, инструментальная мелодия, инструментальное исполнение, ансамбль, солист, журнавоз.

Abstract: This article examines the organization of the Department of Oriental Music, its efforts, the development of the educational process, key tasks accomplished, and the results achieved. It also discusses the work and achievements in instrumental performance in the second half of the *20th century*. *Information is provided on the creative work of the Student Maqom Ensemble under the direction of the outstanding maqomayef master Fakhriddin Sodiqov, as well as the efforts they have made. Performance on the Shashmaqom, the foundation of Uzbek classical music, is also discussed.*

Keywords: Oriental music, Shashmaqom, complexity, classical melody, ustoz-shogird relationship, national music, instrumental melody, instrumental performance, ensemble, soloist, jurnavoz.

Tarixdan ma'lumki, musiqiy merosimizning qadimiy ustozona turlaridan bo'lmish maqomlar, XX asrning 20- yillarida yangi ijtimoiy shart-sharoit va umuman davr taqozosi bilan ilk musiqa o'quv yurtlariga joriy etiladi. 1921 yili Buxoroda Fitrat sayi'-harakatlari bilan ochilgan Sharq musiqa maktabi shundaylardan biri bo'lgan. Unda Shashmaqom, an'anaviy musiqaning o'zga murakkab janrlar qatori, jiddiy tusda, maxsus dasturlar asosida talabalarga o'rgatila boshlangan. Ko'p yillik ta'lim bilangina talab darajasida o'zlashtirilishi mumkin



bo‘lgan, hatto kasbiy, ustozona an’anaviy musiqamiz bo‘yicha yosh ijrochi kadrlar tayyorlash ishlari musiqiy o‘quv yurtlarida butunlay to‘xtatildi. Ushbu muammoni XX asrning 40-50 yillarida musiqa o‘quv yurtlarida “O‘zbek xalq cholg‘ulari bo‘limi” nomi ostida yaratila boshlangan va hozirgacha o‘z faoliyatini davom ettirayotgan maxsus shahobchalar ham hal etolmadi. Aksincha, faqatgina qayta ta‘mirlangan yoki butunlay yangi tusda kashf etilgan sozlarga mo‘ljallangan dasturlarda kompozitorlik ijodiyotiga xos janr - turlar kiritilib, an’anaviy musiqa ijrochiligi qat’iyan man etilganligi amalda merosimizni to‘laqonli o‘zlashtirishimizga jiddiy to‘siqlardan biri bo‘lib keldi. Bunday eng katta fojia an’anaviy ijrochilik uslubi ham yirik ashulachi va cholg‘uchining umri bilan bevosita bog‘lanib qolganida edi. Har bir ustoz sozanda hech bo‘lmaganda o‘z bilimining bir qismini kelajak avlod - shogirdlariga o‘quv yurt sharoitida jiddiy o‘rgatolmasa, milliy musiqamiz durdonalarining amalda yo‘qotilishi hech gap emasdi.

1972-73-o‘quv yilida Toshkent konservatoriyasida o‘z faoliyatini boshlagan Sharq musiqasi kafedrasining asosiy, yetakchi vazifalaridan biri yuqorida zikr etilgan muammolarni oldini olish edi. Shunday tadbirlardan dastlabgisi “Shashmaqom” va umuman o‘zbek maqomlari hamda o‘zga murakkab janrlarning yetuk ijrochilarini tayyorlashdan iborat bo‘ldi. Ikkinchi eng muhim vazifa – konservatoriyamiz e’tiboridan chetda qolgan, kengroq miqyosda, umuman o‘tmish davr o‘quv yurtlarida ham amalga oshirilishi qiyin bo‘lgan muammo - Sharq tillarini bilgan, musiqaga tegishli turli yozma manbalarni bevosita o‘qib tushunishga qodir, ayni vaqtda, zamonaviy talab darajasidagi musiqashunos, aniqrog‘i, musiqiy sharqshunoslarni tayyorlashga qaratildi. Ushbu soha musiqashunoslarini yetishtirishda Sharq mamlakatlari musiqiy merosi, zamonaviy musiqa, jumladan, kompozitorlik, bastakorlik ijodiyotlari bilan kelajakda “Sharq mamlakatlari musiqasi” fanini o‘quv yurtlarimizda joriy etishda ishtirok etishlari ko‘zda tutilgan edi.



Ma'lumki, 1971 yilning oktyabrida YuNESKO tasarrufidagi xalqaro Musiqa Kengashining navbatdagi VII kongressi Moskvada "Xalqlar musiqa madaniyati, an'analar va hozirgi zamon" mavzuida o'tkazilgan edi. Musiqiy merosimiz o'zlashtirilishi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan vaziyatda Toshkent konservatoriyasida Xalq musiqa ijodiyoti kabineti tashkil etildi. Fayzulla Karomatov (Karomatli)ning yangi yo'nalishdagi Sharq musiqasi kafedrasini ham tashkil etish masalasi jiddiy taklif sifatida o'rtaga tashlangan edi. Ushbu masalani O'zbekiston Kompozitorlar uyushmasi ma'qulladi. Bu kafedrani ochishdan maqsad nafaqat mintaqamizdagi musiqiy meros, balki keng qamrovli o'rta asr musiqiy risolalari, ya'ni ilmiy-nazariy tadqiqotlarni bevosita arab, fors, hind, urdu, turkiy tillarda mutolaa etishga qodir musiqashunos-sharqshunoslarni tayyorlashdan iborat bo'lib, bu jahon konservatoriyalari uchun o'rnak bo'lishda ilk qadam edi. Ayni vaqtda ushbu kafedra doirasida musiqiy merosimizning ustozona an'anaviy ijroni talab etuvchi murakkab turlari (maqomlar va bsh.)ni amaliy o'zlashtirish, aniqrog'i ushbu soha uchun xonanda va sozandalarni tayyorlash hamda Xalq ijodiyoti kabineti faoliyatini folklor ekspeditsiyalari ila talabalar chiqishlarini ta'minlab, ular diqqatini yig'ilgan notaga olish, tartiblashtirish, tadqiq etish uslublariga qaratish juda muhim ahamiyatga ega qadamlardan bo'lgandi, albatta. 1972 yilning sentyabrida Fayzulla Karomatli kafedra mudiri (1972-1980), (1992-1997) va professori (1980-1990) sifatida bu masalada talabalarni yo'naltirib turdi. Birinchi yillardanoq ushbu kafedraga xos ixtisosliklar bo'yicha o'zbekistonlik talabalar, aspirantlar bilan bir qatorda qardosh Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Ozarbayjondan hamda keyinchalik Germaniya, AQSH, Pol'sha, Chexoslavakiya, Sudan, Iordaniya kabi xorijiy davlatlardan kelib tahsil olgandilar. Angliyadan L.Pikken, Germaniyadan Yuzef Antoni Elsner, Erondan Barkeshli va Purturab, AQSHdan M.Slobin, Iroqlik Shaxrizoda Hassan va boshqalar bu dargohda ta'lim oldilar. Sharq musiqasining turli masalalari, uning rivojlanish tarixi va musiqiy-nazariy asoslari haqida ma'ruza o'qiganlari alohida ahamiyat kasb etgandi. [4.162-163b.]



Bu kafedra musiqiy sharqshunoslik yoʻnalishi boʻyicha yuqori malakali musiqashunos hamda maqom ijrochiligi boʻyicha bilimdon mutaxassislarni yetishtirish, oʻzbek xalq cholgʻularida anʻnaviy ijrochilikni puxta egallagan sozanda va xonandalarni tarbiyalash vazifalarini oʻz zimmasiga olgan edi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun koʻzga koʻringan olim va atoqli maqom ijrochilari ishga taklif qilinadi. Ularning orasida Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan artistlar tanburchi Rizqi Rajabiy, naychi Mahmudjon Muhammedov, doirachi Toʻychi Inogʻomovlar bor edi. Bu ishlarga Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan sanʻat arbobi, mashhur changchi va bastakor Faxriddin Sodiqov yoʻlboshchilik qildi. Ustozning taʼlim berish uslubiyati alohida ahamiyat kasb etgan holda iqtidorli talabalarga kasbiy musiqa merosimiz, hususan, maqomlarni mukammal, ayni paytda ijodkorona oʻzlashtirishga qaratilgan edi. Professorlar Fayzulla Karomatov va Ishoq Rajabovlar ishtirokida xalq cholgʻularida ijro anʻanalarini oʻqitish usullari ishlab chiqilib, asosiy eʼtibor Shashmaqom cholgʻu yoʻllarini amalda oʻzlashtirishga qaratildi. Bunda asosan quyidagi nota toʻplamlaridan: 9 jildlik “Oʻzbek xalq musiqasi”, olti jildlik “Shashmaqom”, shuningdek, “Shashmaqom” grammafon lappaklaridan tashkil topgan materiallardan foydalanildi. Mutaxassislik fanlari oʻqituvchisi va talabalar maqom ansambli rahbari boʻlgan Faxriddin Sodiqovni katta ijodiy murakkabliklar kutib turgan edi. Shashmaqom cholgʻu qismlari qayta-qayta toʻliq notalashtirilganligiga qaramasdan, ularning jonli joʻrnavozlik ijro anʻanalari sustlashib qolgan edi. hattoki Oʻzbekiston radiosi huzuridagi maqomchilar ansambli jamoasining dasturida “Shashmaqom” cholgʻu qismining faqatgina ayrimlari chalinardi. Maqomlarning cholgʻu yoʻllari, baʼzi sabablarga koʻra, uzoq vaqt ijro etilmasdan keldi. Masalan, Oʻzbekiston radiosi huzuridagi maqom dastasi repertuarida Muxammasi Bayot, Tasnifi Dugoh, Samoyi Dugoh, Garduni Segoh va maqom ashula yoʻllarining ayrim cholgʻu variantlari ijro etilardi...(Nasri Segoh, Nimchoʻponi kabilar). Shu sababli, koʻproq maqomlarning xalq orasida mashhur boʻlgan namunalari Choʻli Iroq, Mirza Davlat, Choʻli Kurd, Abdurahmonbegi, Begi



Sulton, Eshvoy, Misikin, Ajam, Nasrullovi kabi yakka va turkumli kuy yo‘llari chalinardi. [8.11b.]

Dastlabki urinishlardan o‘q jiddiy bo‘shliqlarni to‘ldirishga kirishildi. Negaki Respublikamizning na musiqa maktablarida va na o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida an’anaviy ijrodagi maqomlarimizni xalq chog‘ulari amalida qo‘llanilmas edi, bu narsaga e’tibor ham berilmasdi. F.Sodiqov nafaqat yo‘qolib borayotgan an’anaviy maqom cholg‘u kuylarini mukammal darajada tikladi, balki uning ijrochilik an’analarining saviyasini yangi, yanada yuqori bosqichlarga ko‘tardi. Sifatli o‘zgarishlar yakka hamda, ko‘proq cholg‘u ansambli ijrochiligiga qaratildi. Birinchi qadamda pedagog-amaliyotchi Shashmaqom cholg‘u qismlarining yakka ijrochiligiga e’tiborini qaratib, uni o‘quv amaliyotiga kiritdi. Ushbu ishni keng tarqalgan cholg‘ulardan dutorda boshladi. Sodiqovning dutor sinfi dasturida bir qismli va turkumli asarlar bilan bir qatorda Shashmaqom cholg‘u yo‘llari ham kiritildi. Masalan, Shashmaqomning asosiy cholg‘u qismlaridan Tasnif, Tarje, Gardun, Muxammas va Saqil, shuningdek “Talqin” sho‘‘basi, ashula bo‘limining Nasr va taronalari ham amalda o‘rganila boshlandi. Ushbu yangiliklar chang, g‘ijjak, qo‘shnay, rubob va boshqa bir qator cholg‘u asboblarida ham o‘rganila boshlandi. Ustoz Faxriddin Sodiqovning Shashmaqom cholg‘u yo‘llarini o‘zlashtirishdagi ko‘rsatgan jonbozliklari to‘g‘risida San‘atshunoslik fanlari nomzodi, professor Ravshan Yunusov quyidagicha baho beradi. “Maqom ijrochiligi bo‘yicha akademik Yunus Rajabiyning izdoshi va yaqin safdoshi, atoqli-ustoz murabbiy Faxriddin Sodiqov talabalar cholg‘u ansambli faninio‘z zimmasiga olar ekan, o‘quv vazifalari o‘rnida ayrim mezonlari avvallari sinovdan o‘tkazilgan yangi ijodiy maqsadlarni ko‘zlaydi”., - deya fikrini davom ettiradi – “Bilimdon ijodkor rahnamoligida sozandalar guruhi ilk o‘quv yili ichida o‘rnatilgan tartibga rioya qilib “Tasnifi Buzruk”, “Tarjei Buzruk”, “Garduni Buzruk”, “Muxammasi Buzruk”, “Muxammasi Nasrullovi” hamda Farg‘ona Toshkent mumtoz cholg‘u kuylaridan “Nasrullovi”ni to‘la-to‘kis o‘zlashtirib ijro etdilar.” [11.46b.]



Turli maktab egalarining o‘ziga xos ijrochilik an’alarini o‘rganish ham muhim omillardan bo‘lib, talabalarga mashhur sozandalarning an’alarini ham o‘zlashtirila boshlandi. Ustoz talabalar bilan olib borilayotgan dars jarayonida o‘ziga xos ijro uslubiga ega bo‘lgan bir qator sozandalar bilan tanishtirib boradi. Bular mashhur dutorchilar andijonlik- Muhiddin Hoji Najmiddinov, Nug‘mon Qori Mo‘minzoda, Solixon Hoji, toshkentlik Abdusoat Vahobov va boshqalar. O‘zbek maqom ansambli ijrochiligining an’analari va u bilan bog‘liq bo‘lgan muhim vositalar to‘g‘risidagi savollar yechimi ilmiy-metodik qo‘llanmalarda mavjud emas edi. F.Sodiqov tomonidan jamlangan malaka, ijodiy tajriba va pedagogic bilimlari ana shu masalada o‘zining kerakli bo‘lgan javobini topdi. An’anaviy musiqa tamoyillarini egallagan, shuningdek zamonaviy musiqa an’analari bilan ham yaxshi tanish bo‘lgan maqomchilar ansamblining ustozlari F.Sodiqov ansambl ijrochiligini yangi, yanada yuqori bosqichlarga ko‘tardi. F.Sodiqov o‘rganilayotgan har bir asarning asosiy tuzilmalaridan, cholg‘u asboblarining imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularni yanada jozibali chiqishi uchun turli bezaklarni keltirib, dars davomida ushbu vositalar ustida ishlar edi. Bunda ishda unga yordam bergan qobiliyat to‘g‘risida T.S.Vizgo shunday deb yozadi: - “Tug‘ma qobiliyatga ega bo‘lgan Sodiqov, maqom ijrochiligidagi an’analarga ega bo‘lgan kuylar partiturasini go‘yoki ichida yozardi”. [3.62-63b.]

Faxriddin Sodiqovning ansambl ijrochiligi, ustozligi borasida professor R.Yunusov yana quyidagilarni aytib o‘tadi: “Bir qarashda ustoz cholg‘u ansambli bo‘yicha Shashmaqomning birinchi maqomidan boshlab o‘rgatishni rejalab qo‘ygandek tuyuladi. Ammo talabalar Saqildan bo‘lak maqom qismlarini shunchaki “chalib” o‘tishmadi, aslo. Bu noyob ijro shundan dalolat berdiki, iqtidorli yosh sozandalar mashqsifat nafis kuylarni shirali yangratishda, mazmunini idrok etib, falsafasini tushunib yetishda chinakam kasbiy malaka tugul yuksak mahorat pillapoyasiga ko‘tardilar. Boshqa ibora bilan ta’riflaganda, “ustoz-shogird



ustaxonasi”da olib borilgan bir yillik mashaqqatli mehnat zavqli ijodiy “parvoz”larga yo‘l ochdi”. [3.46b.]

Har xil kurs talabalari ustozlaridan mustaqil ravishda o‘z ustida ishlashni o‘rganardilar. Faxriddin Sodiqovdan har bir o‘rgatilayotgan asarning ma‘qul bo‘lgan u yoki bu ko‘rinishini izlab topish vazifasini olib, muvaffaqiyatli chiqqan ijodiy topilmalarni amalda qo‘llar edilar. Bu topshiriqlar talabalarning musiqiy tafakkurini o‘stirish uchun muhim bo‘lib, ularni mustaqil izlanishga o‘rgatib, kelgusida malakali ijrochi bo‘lib yetishishiga sababkor bo‘lar edi. 1973 yili Olma Otada o‘tkazilgan “Osiyo mamlakatlari III xalqaro musiqa minbari” anjumaniga Faxriddin Sodiqov rahbarligida talabalar ansambli tomonidan ijro etilgan asar O‘zbekistondan taqdim etilgan edi. Shuni faxr bilan eslab o‘tish mumkinki, uchinchi yo‘nalish tarkibidagi asarlar orasida O‘zbekistondan tavsiya etilgan “Tarjei Buzruk” g‘olib deb topildi. Ushbu ansambl ijro etgan Shashmaqom cholg‘u qismida ijroviy yondashuv, uslub yangi deb topilgan. Asar ijrochilari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, ustoz Faxriddin Sodiqov rahbarligidagi Toshkent davlat konservatoriyasi “Sharq musiqasi” kafedrasining talabalar maqom ansambli. Uning tarkibidagi cholg‘u lar: g‘ijjak, tanbur, dutor, qashqar rubobi, chang, qo‘shnay, doira. Talabalar ijrosidagi asar ushbu 1973 yilda “mono” va “stereo” magnit tasmalariga tushirildi. Shuni ham aytib o‘tish kerakki, mazkur ijro yetishib chiqayotgan yosh sozandalar uchun o‘rnak oladigan darajada yorqin timsol bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Darhaqiqat, Toshkent grammofon yozuvi studiyasida ikkala texnikaviy sifat – “mono” va “stereo” yozuvi yordamida xujjatlashtirilgan lappak-disk qilib, “Shashmaqom cholg‘u yo‘llari” nomida berilgan Tarjei Buzruk hozirgi kunga qadar barcha talaba hamda yosh sozandalar uchun ixtisoslik bo‘yicha dasturulamal vazifasini bajarib kelayotir. U hamon respublikamiz radiosi orqali bot-bot yangrab turadi, bundan esa ko‘p sonli tinglovchilarimiz bahramand bo‘lishi mumkin. [16.186b.]



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T.,1993y.
2. Karomatov F. Ana'analar ildizi umrboqiy. (Toshkent davlat konservatoriyasi Sharq musiqasi kafedrasining 20 yilligi). "O'zbekiston adabiyoti va san'ati". 1993 yil, 23 aprel', №17 (3225)
3. Вызго Т.С. Инструментальный состав "Шашмакома" и традиции ансамблевого исполнительства на Среднем Востоке. // Макомы, мугамы и современное композиторское творчество. Ташкент, 1978.
4. Jabborov A. O'zbekiston kompozitorlari, bastakorlari va musiqashunoslari. To'ldirilgan 2 nashr. T.,2018, 162-163b.
5. Ibrohimov O. Maqomdon olim Ishoq Rajabov. //Musiqa ijodiyoti masalalari. Toshkent, 1997y.
6. "Musiqa ijodiyoti masalalari"- I-tom "Qatortol- Kamolot" T. 1997 yil.
7. "Musiqa ijodiyoti masalalari" - II-tom "Yangi asr avlodi"- 2002 yil.
8. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent - 1963.
9. Rajabov I. Maqom asoslari. T.,1992.
10. Rajabov I. Maqomlar. T., 2006.
11. Rajabiy Yu. Musiqa merosimizga bir nazar. T.,1978.
12. Shashmaqom saboqlari. (maqola va ma'ruzalar to'plami). Toshkent - 2005.
13. Shashmaqom saboqlari. (maqola va ma'ruzalarning ikkinchi to'plami). Toshkent-2005.



14. Shashmaqom an'analari va zamonaviylik. Xalqaro ilmiy konferentsiya materiallari. Samarqand, 2005 yil 27-29 avgust. "Musiqqa" nashriyoti. Toshkent - 2005.

15. G'ofurbekov T. XX asr o'zbek musiqasi va Yunus Rajabiy. //Musiqqa ijodiyoti masalalari. "Qatortol – Kamolot" T., 1997. 48-bet.

16. Yunusov R. "Ishoq Rajabov - XX asr maqom allomasi". //San'atshunoslik masalalari. Ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent, 1998 yil.

17. Yunusov R. Faxriddin Sodiqov. Toshkent-2005 yil, 186 bet.